

“Insonparvarlik” Konseptining Lingvokulturologik Xususiyatlari

Giyasova Dilafruz Xamzaevna¹

Annotatsiya: Ushbu maqola lingvokulturologiyaning shakllanishi va “Insonparvarlik” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Bundan tashqari, maqolada lingvokulturologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning fandagi o‘rni va o‘rganilishi kerak bo‘lgan jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar, lingvokulturologiya, konsept, insonparvarlik, so‘z erkinligi, yaxshilik, sevgi, burch, or-nomus.

Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gap ketganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V. fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar. V.fon Gumboldt “har bir tilda individuallik tafovutlar birligi ekanligini ta’kidlagan. Avvalo, individuallik har bir tilning boshqalardan farq qilishida va bu ayni paytda shartli bir xillikni namoyon qiladi”². Mashhur tilshunos olim A. Potebnyaning “Fikr va til”, strukturaviy semantikaning asoschilaridan biri bo‘lmish L. Vaysgerber, A. Vejbitskayaning “Til. Madaniyat. Idrok.”, “Semantik universallar va tillarning tavsifi” kabi ilmiy izlanishlari, fikr va mulohazalari ushbu sohani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Lingvokulturologiya tilshunoslikning paradigmatlaridan biri bo‘lib, 20 asrning oxirgi choragida shakllana boshladi va u fanlararo, ya’ni til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini, madaniyatning til orqali aks ettirilishini o‘rganuvchi alohida fan sifatida qabul qilindi.

Lingvokulturologiyaning o‘ziga xosligi shundaki, unda madaniyat, til, psixologiya bir birini to‘ldirib boradi va eng muhimi bu sohalarni chuqur tadqiq qiladi. Lingvokulturologiya hali boshqa sohalar kabi o‘ziga xos izlanish chegaralarini, maqsad, vazifa, nazariy platformasini, metodologiyasini va izlanish metodlarini mukammal ishlab chiqqan emas. Bu borada hali qilinadigan ishlar juda ko‘p. Ammo lingvokulturologiyaning obyekti bugungi kunda aniqlangan bo‘lib, bu “til” va “madaniyat” hisoblanadi. Ushbu sohaning predmetiga kelsak olimlarning fikrlari hali har xil. Ba’zi bir olimlar lingvokulturologiyaning predmeti tilda mavjud madaniyatni tahlil qiladi desalar boshqalari madaniyatda mavjud tilni o‘rganadi deb aytishadi. Umuman olganda lingvokulturologiyani etnolingvistikaning bir qismi deb bilishsa, ba’zi olimlar uni kognitologiyaga yaqinligini ta’kidlashadi. Boshqa bir olimlar uni madaniyatshunoslik, tilshunoslik fanlarining bir bo‘lagi deb hisoblashadilar. Bu borada biz lingvokulturologiyaning qaysi fanlar bilan tutashligi, uning obyekti va predmeti, izlanish metodlari borasidagi fikrlar qarama qarshiligini o‘rganib, filologiya fanlari doktori, professor Shaxriyor Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” kitobida “bizlar nazariy xatoliklarga olib keluvchi munozaralar bilan mashg‘ul bo‘lish o‘rniga, yuqorida keltirilgan sohalar o‘rtasida tutash nuqtalarni izlashimiz kerak”³ degan fikrlariga qo‘shilamiz.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, lingvokulturologiyani o‘rganishda olimlar nafaqat til strukturasi, uni jamiyatda ifodalanishini o‘rganibgina qolmay unda etkazib berilgan ma’lumot qanday mexanizmlar bilan qayta ishlanadi, qanday semantic qiymatga ega bo‘ladi va bu ma’lumot ongimizda qaysi kognitiv qolibda saqlanadi degan savollarni o‘rganishadi.

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini o‘qituvchisi

² Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М., 1985

³ [Sh. Safarov, Kognitiv tilshunoslik, 8 - bet]



Tilning qadriyat-semantik makonining zamirida aytilganlardan kelib chiqadigan bo'lsak, qadriyatlar deb ataladigan maxsus madaniy kategoriyalar mavjud. Quyidagi qadriyatlar turlari ko'pincha lingvokulturologiya nuqtai nazariga kiradi:

- hayotiy: hayot, salomatlik, hayot sifati, tabiiy muhit va boshqalar;
- ijtimoiy: ijtimoiy mavqei, mavqei, mehnatsevarligi, boyligi, kasbi, oila, bag'rikenglik, gender tengligi va boshqalar;
- siyosiy: so'z erkinligi, fuqarolik erkinligi, qonuniylik, fuqarolar tinchligi va boshqalar;
- axloqiy: yaxshilik, sevgi, do'stlik, burch, or-nomus, odob va boshqalar;
- diniy: Xudo, ilohiy qonun, imon, najot va boshqalar;
- estetik: go'zallik, ideal, uslub, uyg'unlik.⁴

Tilda ifodalanish darajasiga ko'ra ma'naviy qadriyatlar umuminsoniy, milliy, mulkiy-sinf, guruh, oilaviy, individual-shaxsiy bo'lishi mumkin.

Linvokulturologiyaning predmeti etib Maslova: “tilda frazeologik birliklar, maqollar, majoziy birliklarda mustahkamlangan madaniyat, rivoyatlar, urf-odatlar, e'tiqodlarning marosim va marosim shakllari”ni tanlashni ta'kidlaydi.

Lingvokulturologiyaning kelib chiqishini tahlil qilishda Amerikalik olimlarning antropologik lingvistika sohasida qilgan ishlariga murojaat qilsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Antropologik tilshunoslik bu tilning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o'rni, hamda uning madaniyat va jamiyat tuzilmalarini yaratishdagi rolini o'rganuvchi tilshunoslik va antropologiya bir sohasidir. “Antropologik tilshunoslik dastlab asosan yozilmagan tilga e'tibor qaratgan bo'lsa, hozirda yozma an'anaga ega bo'lgan va bo'lmagan tillarni o'rganadi”⁵

Antropologik tilshunoslikning dastlabki rivojlanishida Edvard Sapirning izlanishlari salmoqli ahamiyatga ega. U mahalliy amerikalik tillar, xususan, AQSh va Kanadadagi tub aholi tillari ustida ishlagan. Sapir asarida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ta'kidlanib, til nafaqat madaniy qonuniyatlarni aks ettiradi, balki fikrlash jarayonlariga ham ta'sir qiladi, deb ta'kidlagan. “Til madaniyatdan ajralgan majmua emas, aksincha, ma'lum bir zamon va joyda yashovchi ma'lum bir xalq madaniyatining muhim qismidir”⁶– deydi Sapir. Benjamin Li Vorf Sapirning g'oyalarini kengaytirib, mashhur Sapir-Uorf gipotezasini taklif qilgan. Bu gipoteza shuni ko'rsatadiki, tilning tuzilishi va lug'ati so'zlovchilarning dunyoni idrok etish va fikrlash tarzini shakllantirishi va cheklashi mumkin. Whorfning ishi lingvistik nisbiylik va tilning bilishga qanday ta'sir qilishini o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sapir-Uorf gipotezasi bilan bog'liq g'oyalar Edvard Sapir va Benjamin Li Uorf hammualliflari bo'lgan maxsus kitobda taqdim etilmagan. Buning o'rniga, ularning lingvistik nisbiylik va uning ikkita versiyasi (determinizm va nisbiylik) haqidagi qarashlari ikkala olim tomonidan kiritilgan turli insholar, maqolalar va yozuvlardan olingan. “Til: nutqni o'rganishga kirish” (1921) - Bu kitobda Sapir tilshunoslikdagi asosiy tushunchalarni muhokama qiladi va keyinchalik Sapir-Vorf gipotezasi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi g'oyalar uchun asos yaratadi.

O'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri O'tkir Hoshimovning “Nur borki soya bor” romanida sovet davridagi jamiyatning ijtimoiy hayotidagi illatlarini, turg'unlik mohiyatini ochish asnosida davrning muhim muammolarini ko'tarib chiqqan. Ushbu asarda bosh qahramon Sherzod timsolida o'zbek xalqining vatanga bo'lgan muhabbati, uning samimiyligi, haqqarvarligi, yaxshilikka qaratilgan harakatlari romanning eng asosiy konseptini “insonparvarlik”ni ochib beradi. Yurak tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak asarning boshida Sherzodning yuragi og'riydi: “Kechasi

⁴ [Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: (224 pages.) 7-8 pages].

⁵ [Teeter, Karl V. (1964). "Anthropological Linguistics and Linguistic Anthropology". *American Anthropologist*. **66** (4): 878–879. doi:10.1525/aa.1964.66.4.02a00120.].

⁶ (Edward Sapir. Time Perspective in Aboriginal American Culture, a Study in Method. Geological Survey Memoir 90: No. 13, Anthropological Series. Ottawa: Government Printing Bureau (1916).) [51-52 betlar]



to'satdan uyg'onib ketdi'yu, yuragi qattiq-qattiq urayotgani, kuragi qattiq sanchayotganini, tomog'iga bir narsa tiqilib, bo'g'ilib qolayotganini sezib, ko'nqliga g'ulg'ula tushdi" [7 bet]. Bu voqea uning tahririyatda bir raqamning qolib ketganligi sababli hayfsan olgan kechasi sodir bo'ladi. Uning juda ko'p ishlashiga qaramay unga texnik xatò uchun hayfsan berishlari uni juda qiynaydi. Bu matnda biz inson qadrining nechog'lik mo'rt ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari O'tkir Hoshimov o'sha davrda tahririyatda bitta xatolik uchun qanday jazo olinishi mumkinligini, qo'rqmasdan misol keltirgan.

Yomon tushancha asarda Sayfi Soqiyevich, uning o'g'li Sirojiddinlar misolida keltirilgan bo'lib, Sayfi Soqiyevichning katta hashamatli uyining tasviri: "Xovli jannatga aylanib ketgandi. Temir armaturadan qilingan **so'ritoklarga** osilgan uzumzanglari yosh bolaning kaftidek yiltiroq yaproq yozgan, "prezident" gullari g'unchalay boshlagan edi" [137-138 betlar]. Bu satrlarda yozuvchi hatto gullarning nomida yuksaklik, boshqaruv ma'nosiga ega "President" so'zini bejiz ishlatmagan. "Temir armatura" jumlasini ishlatilishi ham Sayfi Soqiyevichning naqadar boyligini ko'rsatish uchun ishlatigan. Chunki oddiy xalq immoratdan qolgan taxta, daraxt kesilmalaridan so'ritiklar yasagan. Yoki Sirojiddinning qora volgasining tasviri uning nopokligi, qora niyatli inson ekanligidan darak beradi. O'sha davrlarda kamdan kam odamlar mashina sotib olishga qurbi yetgan. Sirojiddinda esa "Volga" rusumli avtomobil va e'tiborni tortadigan qora rangda yurgan.

O'tkir Hoshimovning "Nur borki soya bor" asarida yaxshi tushunchasining asosiy qahramoni bu Sherzod hisoblanadi. U o'zining vatanga bo'lgan muhabbati, xalqparvarligi, to'g'ri so'zligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagi fikrni tasdiqlash uchun quyidagi misolni keltiramiz, Sherzod kasalxonada yotganida yonidagi karavot bo'sh bo'lganiga qaramay, kasalxona yo'lagida bir chol yo'talib yotar edi. Sherzod bu erda xammaga ham bir xel xizmat ko'rsatilishiga amin bo'ldi. U bechor cholni yo'nidagi karavotga o'tkazish uchun mudirni xonasiga bordi: "-Qiziq odam ekansiz! -dedi hamon kulib. Ammo bu gapni kinoya ohangida emas, samimiy aytdi. – Bu bizning ishimiz, birodar. Kasalni biz davolaymiz, size mas!" "- Bilaman, - dedi Sherzod bo'g'iq ovozd, - tanasini davolaysiz, ruhini o'ldirasiz".⁷

Yaxshi tushunchasining yana bir misoli Abduvohid, Sherzodning do'sti orqali bayon qilingan. Bu obraz orqali **do'stlik, sadoqat, oila** tushunchalari qamrab olingan. Sherzodni kasalxonaga ko'rishga kelgan Abduvohid: "Sherzod yugurib bordi-yu, Abduvoxidni dast ko'tarib oldi. Abduvoxidning ixcham gavdasi xavoda muallaq osilib qolgan, ko'zlari kulgidan qisilib ketgan, undan yomg'ir hidi anqib turardi.

-Quyvor, ovsar, belni sindirding-ku, - dedi kuchanib. – Kim aytadi seni kasal deb?" [34-bet]. Sherzodning Abduvohidni ko'tarib olganligidan ularning qalin do'st ekanligini, "ovsar, quyvor" – deyishidan qanchalik bir biriga yaqin ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ашуров Ш. Хорижий тилларни урганишда маданиятнинг таъсири //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2018. – Т. 3. – №. 2. – С. 67.
2. Edward Sapir. Time Perspective in Aboriginal American Culture, a Study in Method. Geological Survey Memoir 90: No. 13, Anthropological Series. Ottawa: Government Printing Bureau, 1916. - B.51-52.
3. Giyasova D. The importance of listening skills in teaching in ESL classes. Zamonaviy Ta'limda Raqamli Texnologiyalar. Filologiya va Pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari, Xalqaro Ilmiy-Amaliy masofaviy konferensiya. -2020. -T.1. – N.1. – С. 25.
4. Giyasova D.X. The importance of listening skills in teaching English in ESL classes. //Международный журнал искусство слова. -2022. -Т.5.-№.6. – С. 109-112.
5. Khasanov S.Sh. The place and development of the intertext phenomenon in world literature. // International Bulletin of Applied Sciences and Technology. -2023. – Issue 06. Volume 4. – P. 1164-1166.

⁷ "Nur borki soya bor" – 11 bet



6. Nasrullaeva, N. Z. (2015). The concept "kindred relations" as a problem of gender linguistics (on the material of English phraseology). In *The Fifth European Conference on Languages, Literature and Linguistics* (pp. 8-13).
7. Zafarovna, N. N. (2016). GENDER AND GENDER STEREOTYPES IN THE ENGLISH PHRASEOLOGICAL SYSTEM. *Восточно-европейский научный журнал*, 12(1), 111-114.
8. Nasrullaeva, N. Z. (2018). English-Russian-Uzbek dictionary of genderly marked phraseological units. *Toshkent: Navruz*.

